
MILLIY-HUDUDIY AN'ANALAR – MAHSULDOR ETNOPEDAGOGIK QADRIYAT SIFATIDA

Safarova Roxat Gaybillayevna, Tarbiya pedagogikasi milliy instituti «Milliy tarbiya, mutafakkirlar va jadidlarning pedagogik ta'lomitlari» ilmiy tadqiqot bo'limi boshlig'i, p.f.d., professor

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy-hududiy an'analar, ularning pedagogik ahamiyati, milliy-hududiy an'analarning o'quvchi-yoshlarda o'zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish imkoniyatlari, milliy-hududiy an'analarning mazmun-mohiyati, ulardan foydalanish imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so'zlar: milliy-hududiy an'analar, o'zlikni anglash, milliy g'urur, o'zbek, turkman, estetik did, estetik dunyoqarash, kashtachilik, zargarlik, madaniyat, xulq-atvor, urf-odat.

НАЦИОНАЛЬНО-РЕГИОНАЛЬНЫЕ ТРАДИЦИИ КАК ПРОДУКТИВНАЯ ЭТНОПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ЦЕННОСТЬ

Сафарова Роҳат Гайбилаевна, заведующая научно-исследовательским отделом «Национальное образование, педагогические учения мыслителей и джадидов» Национального института педагогики воспитания, д.п.н., профессор

Аннотация. В данной статье рассмотрены национально-региональные традиции, раскрыто их педагогическое значение, возможности национально-региональных традиций для формирования у учащейся-молодёжи чувства идентичности, патриотизма, национальной гордости, содержание и сущность национально-региональных традиций, возможности их использования.

Ключевые слова: национально-региональные традиции, идентичность, национальная гордость, узбеки, туркмены, эстетический вкус, эстетическое мировоззрение, вышивка, ювелирное искусство, культура, поведение, обычаи.

NATIONAL-REGIONAL TRADITIONS AS A PRODUCTIVE ETHNOPEDAGOGICAL VALUE

Safarova Rokhat Gaybillayevna, head of the scientific research department «National education, pedagogical teachings of thinkers and jadids» of the National institute of educational pedagogy, PhD, professor

Abstract. This article discusses national-regional traditions, their pedagogical significance, the possibilities of national-regional traditions for forming a sense of identity, patriotism, and national pride in schoolchildren, the content and essence of national-regional traditions, and the possibilities of their use.

Key words: national-regional traditions, identity, national pride, Uzbek, Turkmen, aesthetic taste, aesthetic worldview, embroidery, jewelry, culture, behavior, customs.

Kirish. Ma'lumki, o'zbek xalqi o'zining ko'p asrlik tarixiy taraqqiyot yo'lli, tarixi, san'ati va madaniy boyliklariga ega. Bu boyliklarning yosh avlod tarbiyasiga samarali ta'siri nuqtai nazaridan yondashganda nihoyatda mahsuldor ekanligini xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllanib, barqarorlashgan, bugungi kunda madaniy yuksaklik kasb etayotgan turmush tarzi, jamiyat madaniyati timsolida yaqqol namoyon bo'immoqda. Biz o'zbek xalqi turmush

tarzi va madaniyatini tahlil qiladigan bo'lsak, unda markaziy Osiyo hamda boshqa hududlarda yashovchi turkiy xalqlar madaniyati bilan mushtarak jihatlarni ko'rish mumkin. Bu, ayniqsa, milliy-hududiy an'analar bilan bog'liq integrativ xarakterdag'i etnopedagogik qadriyatlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Asosiy qism. An'ana – (arabcha نعنة) madaniy tajribaning u yoki bu unsurlarini saqlaydigan, avloddan-avlodga o'tadigan, o'tmishdan kelajakka meros qoladigan, jamiyat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan, ijtimoiy jarayonlarning tarixiy-genetik (nasliy) uzviyigini bog'lashga xizmat qiladigan moddiy va ma'naviy qadriyat. An'ana ijtimoiy va madaniy merosdir. Milliy-hududiy an'analar esa, muayyan hududda yashovchi millat vakillariga xos bo'lgan urf-odat, an'analarni o'zida mujassamlashtiradi. An'analar uzoq asrlar davomida ajdoddardan avlodlarga o'tib kelayotgan va bizgacha etib kelgan, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan tartib va koidalardir. «An'ana», «Urf-odat», «marosim»lar bir-biriga bog'lanib, ko'pincha urf-odat tushunchasi asosida targ'ib qilinadi. O'zbek xalqi orasida milliy xarakterdag'i, madaniy, maishiy, ijtimoiy-siyosiy, diniy va boshqa an'analar mavjud. Milliy an'analar o'zbek xalqining tarixiy taraqqiyoti davomida shakllanib to'plangan. Milliy an'analar inson hayotining barcha ma'naviy-ma'rifiy shakllarini saqlash va takomillashtirish vazifasini bajaradi. An'ana xalq, millat ma'naviyatining mavjudlik shakli hisoblanadi. An'ana voqe'likni ma'naviy o'zlashtirishning eng qadimgi shakllaridan biri bo'lib, xalq hayotiga oid tarixiy bilimlarning o'zida mujassamlashtiradi. An'analar barcha etnopedagogik qadriyatlarda o'z ifodasini topadi. Ular sirasiga afsona, ertak, rivoyat, dostonlar, xalq qo'shiqlarida ifodalangan urf-odat va qadriyatlarni kiritish mumkin. An'ana insoniyatning tarixiy, davriy voqealarning ma'naviy-ruhiy mohiyatini o'zida mujassamlashtiradi. Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya jarayonida bir avloddan ikkinchisiga uzatiladi. Millatimizning yosh vakillari an'analar yordamida ma'anaviy-axloqiy jihatdan tarbiyalanadi. Shu ma'noda an'analar shaxs faoliyatining tarkibiy qismi bo'lgan ijtimoiy axloq hamda ijtimoiy-madaniy tajribani o'zida mujassamlashtiradi. Keng ma'noda esa, an'ana insonlar uchun ahamiyatlari bo'lgan madaniyat va uning shakllarini tartibga solish hamda amalga oshirish usuli sifatida baholanadi. Biz o'quvchi-yoshlarni tarbiyalashda ijobiy xarakterdag'i an'analardan foydalanish, salbiy an'analarning zararli ahamiyatidan ularni xabardor qilish haqida ota-onalar va o'qituvchilarga tavsiyalar berish zarurligiga e'tibor qaratamiz.

An'analar, birinchi navbatda, tarixiylik xarakteriga ega. Chunki, ular millatimizning tarixiy ildizlariga borib taqaladi. An'analarning avlodlardan avlodlarga o'tishi va ko'p asrlar davomida yashashi ularning ijobiy xarakterga egaligi bilan bog'liq. Ijobiy xarakterdag'i an'analar jamiyat ma'naviy hayoti va yosh avlod madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Chunki, an'analar jamiyatda muayyan funksiyalarni bajaradi. Ular: 1) yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash; 2) jamiyat a'zolarining estetik didini boyitish, ularga zavq bag'ishlash; 3) jamiyat a'zolarini o'zaro yaqinlashtirish, ular orasida shaxslararo qadriyatli munosabatlarni tarkib toptirish; 4) jamiyat a'zolarini, shu jumladan, yoshlarni madaniyat hamda xalq tarixiga oid zarur bilim va axborotlar bilan ta'minlash kabilar.

Bugungi kunda bizgacha etib kelgan an'analar o'zbek xalqining hayotiy tajribasi, bilimi, aql-zakovati, zehn-idroki, donishmandligi, ruhiyati, ichki kechinmalari, mehnat ko'nikmalari va madaniyatini o'zida mujassalashtirgan. An'analar vorisiylik xarakteriga ega, ular har bir davrda yosh avlod ongiga singdirilib, o'z navbatida, keyingi avlodlarga taqdim etilgandagina umrboqiyigini saqlab qoladi. An'analar o'zbek xalqining tabiiy-tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy madaniy turmushi tarzi, o'tmishi, urf-odati, ta'lim-tarbiyasi, kundalik

mashg'uloti, diniy qadriyatlari, tili bilan uzviy bog'langan holda shakllangan. Urf-odat va ana'nalarning har biri xalq madaniyati va tarbiyaviy qrashlarning ifodasi bo'lib, ular o'zining maqsad va vazifalari hamda mazmun-mohiyatiga ega. Masalan, o'tmishda insonlarning qaysi millatga mansubligi yoshi ijtimoiy axvoldidan ularning tashqi ko'rinishlari, soch soqollari, liboslari xabar bergen. Xonodon darvozasi oldiga ilib qo'yilgan choynak-piyola shu uyning mehmondo'stiligidan dalolat berib, uzoq yo'l bosib kelayotgan yo'lovchilar, ayniqsa, musofirlarni bir piyola choy ichib xordiq chiqarib, yo'lida davom etishga chorlagan. Xonodonlar kiraverishiga ilib qo'yilgan turli aksessuarlar, shu xonadonda kimlar yashashi, necha kishi istiqomat qilishi haqida xabar bergen. Atrofdagilar mazkur xonadonda qizlar yoki yangi tushgan yosh kelinlar bo'lsa vaqt-bemahal kirishdan saqlanganlar. Xonodon sohiblarining yoshi, jinsi, mavqeidan darvoza oldidagi buyumlar xabar bergen. O'zbek xalqining bolani beshikka bog'lash bilan bog'liq bir qator an'analari bor. Ular asosan yosh bolaning himoyasiga qaratilgan. Afsuski, so'nggi yillarda ushbu an'analarning aksariyati unutilmoqda. Ba'zi hollarda ularga eskilik sarqiti sifatida qaratilmoqda. Aslida ular xalq madaniyati va ma'nnaviyatidan xabar beruvchi qadriyatlardir. Jumladan, beshik ustiga yong'oq chaqish yoki novvotni bo'laklarga bo'lish orqali bolani atrofida vaqt-bemahal ro'y beradigan shovqin-suronlardan saqlash nazarda tutilgan. Uni qo'rqmas qilib tarbiyalashga harakat qilingan. O'zbek xalqining liboslari ham o'zining chuqur ma'nosи va tarbiyaviy maqsadlariga ega bo'lgan. Masalan, Buxoro va Xorazm viloyatida «Lachak to'yi», ya'ni Lachak kiyish an'anasi mayjud bu marosim xonadonga kelin bo'lib tushgan qiz farzand ko'rganidan keyin, sharoitga qarab beshik to'yi yoki o'g'il farzand tug'ilgan bo'lsa sunnat to'uda o'tkaziladi. Ushbu tadbirning ma'nosi shundan iboratki, kelin farzand ko'rganidan keyin ayollar safiga qabul qilinadi. Bu esa, uning zimmasiga yangi vazifalar va mas'uliyat yuklaydi.

Lachak kiygan, ya'ni ayollar safiga qabul qilinagan kelin, birinchi navbatda, ona, oila bekasi, farzandi va oilasining taqdiri uchun mas'ul hisoblanadi. U oilasining tinchligi va farovonligi uchun harakat qiladi. Farzandlarining sog'lom rivojlanishi, ma'nnaviy-axloqiy jihatdan kamol topishi uchun javobgar hisoblanadi. Oilaga aloqador masalalarda mustaqil qarorlar qabul qilish huquqiga egaligini ta'kidlovchi tadbir hisoblanadi. Bunday tajriba markaziy Osiyoda yashovchi aksariyat xalqlarga xos bo'lib, u yoki bu shaklda an'analalar oraqali namoyon bo'ladi. Jumladan, turkman ayollarining liboslardagi naqshlar, ularning taqinchoqlari, qaysi urug'ga mansubligi, qaysi hududda yashashi va yoshidan dalolat bergen. Bunday o'ziga xoslik o'zbek xalqiga xos bo'lib, ayollarning liboslari, do'ppilardagi naqshlardan ularning qaysi hudud aholisiga mansubligini bilib olish mumkin. Masalan, Shaxrisabz, Nurota, Xiva, Surxondaryo kashtachilik maktablari, Buxoro va Urgut zardo'zligiga xos bezaklar, Xorazm, Qo'qon, Andijon xunarmandchiligining har biri o'ziga xos bo'lib, ulardagi naqshlar o'z mazmun-mohiyatiga ega. Turkman ayollarining yoshi, mavqeini, ularning bosh kiyimlari kattalashib borayotganligidan bilib olsa bo'ladi. Turkman erkaklari jazolanganda soch-soqollari olib tashlangan. Soch-soqolsiz turkman erkaklari jazolangan bo'lib, to'y-ma'rakalar, gap-gashtaklarda ularni yaxshi kishilar o'z davralariga qo'shmag'anlar. Bu tadbir juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, salbiy xulq-atvorga ega bo'lgan odamlarni o'z xatolari ustida o'yash, kamchiliklarini tuzatishga undagan. Yoshi ulug', tajribali insonlar ularga el nazaridan qolish yomonligini uqtirganlar. Mazkur an'analalar turkmanlar bilan bir mahallada, bir hududda yashovchi o'zbeklarning turmush tarziga ham ma'lum darajada o'z ifodasini topgan. O'zbeklar ham salbiy xulq-atvorga ega bo'lgan insonlarni tegishli tarzda jazolab to'y-ma'rakalarga ularni chorlamaydilar. Turkman qizlari turmushga uzatilganda og'izlariga «eshmak» taqilgan. Bu ma'lum darajada

niqobga o'xshaydi. Bu qiz bola kelin bo'lib tushga xonadonida qaynona qaynotasi bilan gaplashmagan. O'z fikrini ularga turmush o'tog'i yoki oilaning kichik a'zolari orqali hamda imo-ishoralar yordamida etkazgan. Kelin bo'lib tushgan qiz oиласида murakkab vaziyatlar vujudga kelganda, bu haqida onasini xabardor qilganida esa, onasi «eshmagingni echma» deya ko'rsatma bergen. Bu shuni anglatadi, har qanday murakkab vaziyatda «og'iz ochma, chida» demakdir. Bu katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, oilaga yangi qo'shilgan kelinning ayni shu oila a'zolarini o'rganishi, ular bilan til topishi, betga choparlik qilmasligini ta'minlagan. Shu bilan bir qatorda kelinning sabr-toqatlari, bardoshli bo'lishiga imkoniyat yaratilib oilaviy ajrimlarning oldi olingen. Kelin, o'z navbatida, bu tajribani o'z qizlariga ham singdirgan. Kelin oilada o'z o'rnnini topgach oila boshlig'i hisoblangan qaynota tomonidan rag'batlantirilib, qimmatbaho sovg'a berilgan va uning «eshmagi» echilgan. Bu an'ana Xorazm hududiga ham keng tarqalgan. O'rtta Osiyo, umuman, Sharq xalqlari milliy-hududiy an'analarning aksariyati otaning oila boshlig'i sifatida yuksak mavqega egaligi oilada asosiy qaror ota tomonidan qabul qilinishga assoslangan. O'tmishta uylar, o'tovlarning eshigi past qilib qurilishining birinchi sababi qishda sovuq, yozda issiqning yopirilib kirishining oldini olishga mo'ljallanganligida bo'lsa, ikkinchidan, tarbiyaviy ahamiyatidadir. Bunday eshiklardan kirgan farzandlar otaga ta'zim bajo qilganlar. Chunki ota har doim xonaning to'rida o'tirgan. Oilaning boshqa katta-kichik a'zolari unga ta'zim qilib kirganlar. Bu otaga yuksak ehtiromning ifodasi bo'lgan. Ota uy ichida bo'lganda har qancha ehtiyoj tug'ilmasin farzandlar tomsga chiqishmagan. Shuningdek, otadan oldin farzandlar taomga qo'l cho'zmagan, nonni ushatmagan. Respublikamizning aksariyat hududlarida taomlanishdan oldin va keyin qo'l yuvdirish an'ana si bor. Bu vazifani kelinlar va oilaning qiz farzandi amalga oshirgan. Mehmonlar faqat erkaklardan iborat bo'lganda ularga oilaning o'g'il farzandlari xizmat qilgan. Qizlar, kelinlar yoki oila bekalari esa, ostonadan ichkariga kirmaganlar, taomlarni uy eshigigacha etkazganlar. Bunda, asosan, mehmonni noqulay ahvolga qo'ymaslik, unga bemalol o'tirib dam olishi taomlanishi suhbatlashishi uchun sharoit yaratish nazarda tutilgan. Qoraqalpoq xalqining milliy-hududiy an'analari katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Diqqatga sazovor joylari shundaki, Qoraqalpoq oullarida milliy-hududiy an'analarni avloddan-avlodga etkazishda alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Buni urf-odatlar va Qoraqalaoq xalqining milliy liboslari, to'sh va to'ydan keyingi turli an'analarda ko'rish mumkin. Masalan, oilaga yangi kelin kelganda undan oldin tushdan kelin u bilan qo'l ushlashib bir safda turadi. Bu «shu oiladagi tartib qoidalar, ro'zg'or tutumlarini o'rgataman, meni qo'llab quvvatlayman» degan ma'noni anglatadi. Oila bekalari ham kelinlardan milliy urf-odatlarga qat'iy amal qilishni talab etadilar. Liboslarga qaytadan bo'lsak har bir naqshda o'ziga xos ma'no ifodalangan. Uni kiygan libos egasining yoshi, nuqtai nazaridan dalolat beradi. Shu bilan bir qatorda liboslar ijtimoiy, estetik, axloqiy mazmun-mohiyatga ega, naqshlar ijtimoiy-tarixiy funksiyani bajaradi. Milliy-hududiy an'analalar muayyan hududda yashovchi aholining madaniy estetik dunyoqarashiga xos xususiyatlarni kelgusi avlodlarga etkazadi. So'ngi vaqtarda ommaviy hamda marginal madaniyatning ta'sirida milliy-hududiy an'analalar hamda milliy liboslarga bo'lgan e'tibor pasayib ularning yo'qolib borish xavfi kuchaymoqda. Bu esa, milliy madaniy ildizlarmizdan uzoqlashishimizga olib keladi. Liboslar o'quvchi va talaba-yoshlarga millatimizning tarixiy-madaniy o'ziga xosligidan xabar berish bilan bir qatorda milliy xunarmandchilik, mashg'ulot turlari, milliy taomlar, mexmondo'stlik madaniyatidan xabar berish, milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirish, estetik did va nafosat hissini tarbiyalash, xalqparvarlik, millatparvarlik, vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kashtachilik, zardo'zlik, kulolchilik, yog'och o'ymakorligi, kandakorlik, zargarlik kabi ko'plab mehnat turlari va buyumlarda milliy-hududiy an'analar, urf-odatlar, o'zbek millatiga xos ramzlar yashab, milliy-hududiy, madaniy, axloqiy an'analar tartib qoidalarning umrboqiyligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xalqning milliy-hududiy an'analar, qadriyatlarni avaylab-asrash kelgusi avlodlarga to'laqonli tarzda etkazishda folklor namunalari, ayniqsa, xalq qo'shiqlari, doston va termalar, baxshichilik san'ati namunalari ham alohida pedagogik ahamiyatga ega. Ushbu vositalar etnopedagogik qadriyat sifatida yosh avlodni o'zbek xalqining urf-odatlari, madaniyati, xarakterli xususiyatlari gender xosligi bilan yaqindan tanishtirishga ko'maklashadi. O'quvchi-yoshlar qalbida milliy g'urur, o'zlikni anglash, o'z gender mansubligi va gender rollari funksiyalari, burch va majburiyatları, iqtidori, layoqatlarini to'laqonli idrok etishlariga asos yaratadi. Xalqning madaniyati, urf-odati ota bobolarimiz, momolarimizning tog'dan baland g'ururi, qadr-qimmatiga bog'liq jihatlarini bilib olishlarini, unga ibrat namunasi sifatida qarashlari, an'analarda ifodalangan xulq-atvor me'yorlariga amal qiliш ko'nikmalarini egallahlariga xizmat qiladi. O'zbek xalqining milliy bayramlari to'ygacha va to'yldan keyin bo'ladigan tadbirlar, urf-odatlar bilan bog'liq qadriyatlar ham o'quvchi hamda talaba-yoshlarda milliy o'zlikni anglash insonparvarlik, tolerantlik, jomardlik, sadoqatilik, mardlik, sahiylik, silai rahm, ezungilikka intilish, poklik, halollik, qanoatilik, sabr-toqatilik, hayo-ibo, irodallilik, tabiatga oqillonan munosabatda bo'lish, oila, ota-onan yaqinlarni e'zozlash, hayvonot va nabotot olamini asrash kabi sifatlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Xulosa. Xalq qo'shiqlarida millatimizga xos bo'lgan urf-odatlar, orzu-niyatlar, hayo-ibo, axloqiy me'yorlar, hayotiy prinsiplar o'z ifodasini topgan. Unda xalqning milliy xususiyatlari, ximoya vositalari aks etgan. Folklor dastalari, xalq ansamblari kiygan liboslar, aksesuarlar ham o'zida milliy ruhni ifodalaydi. Shuningdek, tasviry san'at, badiiy adabiyot, kashtachilik, kulolchilik, zardo'zlik va yog'och o'ymakorligi mahsulotlari ham uzoq tarix va bugungi kundagi xalq madaniyati hamda millat qiyofasini gavdalantirishga xizmat qilib, o'quvchi hamda talaba-yoshlar qalbidan milliy g'urur, o'zlikni anglash tuyg'usini rivojlantirib, ularda milliy estetik, did va dunyoqarashni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Pedagogika ensiklopediya / Tuzuvchilar: jamoa. - T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2015.
2. Abdullayev M.E. Xalq pedagogikasi: O'quv qo'llanma. -A.: «Omadbek print number one» MChJ, 2024.
3. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. - T.: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.
4. Volkov G.N., Baubekova G.D. Etnopedagogika. - T., 2000.
5. Abdullayeva N.J. Xalq pedagogikasi: Darslik. - T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2021.